

BO'LAJAK PEDAGOGLARNI INNOVATSION TAYYORGARLIKHLARINI RIVOJLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI

Mamasidikov Akramjon Muxtor o‘g‘li

*Namangan davlat universiteti “Pedagogika nazariyasi va tarixi”
kafedrasи tayanch doktoranti.*

Anotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak pedagooglarni innovatsion tayyorgarligini rivojlanirishning shart-sharoitlari yoritilgan. Bugungi globallashuv va raqobatbardosh ta’lim tizimi sharoitida pedagolarning kreativlik, innovatsion texnologiyalarni egallah va yangilikka intilish kabi kasbiy sifatlarini shakllantirish zarurati asoslab berilgan. Maqolada innovatsion o‘quv muhitini yaratish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish va ustoz-shogird tizimini rivojlanirishning ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak pedagog, innovatsion tayyorgarlik, pedagogik texnologiyalar, kreativlik, raqamlı ta’lim, innovatsion muhit, kasbiy rivojlanish.

УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: В статье рассматриваются условия формирования инновационной подготовки будущих учителей. В условиях современной глобализации и конкурентной системы образования обосновывается необходимость формирования таких профессиональных качеств педагогов, как креативность, владение инновационными технологиями и стремление к инновациям. В статье подчеркивается важность создания инновационной среды обучения, внедрения передовых педагогических технологий, стимулирования научно-исследовательской деятельности и развития системы «учитель-ученик».

Ключевые слова: будущий учитель, инновационная подготовка, педагогические технологии, креативность, цифровое образование, инновационная среда, профессиональное развитие.

CONDITIONS FOR DEVELOPING INNOVATIVE TRAINING OF FUTURE TEACHERS

Abstract: This article discusses the conditions for developing innovative training of future teachers. In the conditions of today's globalization and competitive education system, the need to form such professional qualities of teachers as creativity, mastery of innovative technologies and striving for innovation is justified. The article highlights the importance of creating an innovative learning environment, introducing advanced pedagogical technologies, stimulating research activities and developing the teacher-student system.

Key words: future teacher, innovative training, pedagogical technologies, creativity, digital education, innovative environment, professional development.

«Yangi O‘zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirga davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma’naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko‘lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir» -deb ta’kidlaydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev (Yangi O‘zbekiston Strategiyasi) asaridan. Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlash” to‘g‘risidagi farmoni joriy etildi[1].

Mazkur Konsepsiyanı amalga oshirishdagi asosiy prinsiplardan biri - bu ta’lim tizimi tuzilish va mazmun jihatidan isloh qilish uchun o‘qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash, yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha ta’lim muassasalarining faoliyatini uyg‘unlashtirish, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, pedagogik innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga kiritish hisoblanadi. Ammo ilg‘or pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar o‘z-o‘zidan ta’lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu o‘qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga bog‘liq jarayon. O‘qituvchi faoliyatini o‘zgartirmay turib, uning mas’uliyati va faolligini oshirmsandan ta’limda bir qadam oldinga siljib bo‘lmaydi. Ilmiy faoliyat ijtimoiy hodisa bo‘lib, shaxsiy, guruhiy, milliy yoki umuminsoniy ehtiyojlarga javob beruvchi maqsadlar sari yo‘naltirilgan harakat hisoblanadi. Inson faoliyati o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, ijodiy faoliyat, ilmiy faoliyat, pedagogik faoliyat, tadbirdorlik faoliyati, o‘quv-biluv faoliyati, boshqaruv faoliyati va innovatsion faoliyat kabilalar. Faoliyatning mazmuni, shart- sharoitlari, vositalari o‘zgarib borishi natijasida insonning ahloqiy madaniyati takomillashib boradi[7].

Bugungi kunda yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va jahondagi o‘z tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan kuchli bilimlar egasi etib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasiga aylangandir. Yaratilayotgan ulkan imkoniyatlar yosh avlodni ta’lim-tarbiya olishida o‘zining munosib hissasini qo‘shmoqda. O‘sib kelayotgan yosh avlodga har qaysi ta’lim yoshida o‘ziga xos e‘tibor qaratilishi yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganidan darak beradi. Millatimizga xos bo‘lgan ilm olishga qiziqish, intilish, jo‘shqinlik, qat‘iyatlilik, shijoatkorlik, yuksak salohiyat avlodlar davomiyligini ta’minlovchi sifatlar hisoblanadi. Chunki barkamol yoshlar yurtning ertangi kunini belgilaydi. Yoshlar tarbiyasi ularga kasb-hunar o‘rgatish sirlari haqida so‘z borar

ekan, bu erda o‘qituvchi murabbiylar, pedagoglarning xizmati va ularning kasbiy mahorati alohida o‘rin tutadi[2].

Azal-azaldan xalqimiz farzandlarini bilimli, jonkuyar, tajribali murabbiylar qo‘liga topshirishni farz deb bilgan bo‘lsa, bugungi globallashuv va texnologiyalar davrida ham pedagogning jamiyatdagi o‘rni va mavqeい mustahkamlanib, uning mahoratiga qo‘yiladigan talablar oshib bormoqda. Innovatsion kompetensiya - bu insonning yangi va foydali ideyalarni yaratish, ularni amalga oshirish va jamiyatda yangiliklar kiritishga murojaat qilishga qodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan tayyorlik va malakalardir. Bu, o‘rganish, muhokama qilish, ishlab chiqish va tatbiq etish, tahlil qilish, tajriba olish va muammolariga samarali echim topish, hamda muassasalar orasida innovatsiyalar o‘rnatishga bo‘lgan qodirliklarni o‘z ichiga oladi[3].

Innovatsion kompetensiylar, mavzularning orasidagi bog‘liqliknini tushunish, muammolarni kreativlik bilan hal qilish, riskni olg‘a bermaslik va yangi yondashuvlarga bo‘lgan ochiqlikni o‘z ichiga oladi. Bu tayyorliklar, boshqa so‘z bilan, insonni o‘z faoliyati, kasbiy rivojlanishi va jamiyat bilan hamkorlikda yangi vaqtli yondashuvlarni topish va amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan malakalardir. Xo‘sish bugungi axborotlashgan va globallashgan davrda o‘qituvchilar kompetensiyasini rivojlantirish qay darajda muhim. O‘qituvchilarning innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish uchun quyidagi harakatlar muhim bo‘ladi:

Bugungi globallashuv va raqobatbardosh jamiyat sharoitida ta’lim tizimidan innovatsion yondashuvlarni faol qo‘llay oladigan, kreativ fikrlaydigan, zamonaviy texnologiyalarni egallagan pedagoglarni tayyorlash talabi ortib bormoqda. Shu bois bo‘lajak pedagoglarning innovatsion tayyorgarlik darajasini oshirish, bu boradagi shart-sharoitlarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Innovatsion tayyorgarlik bo‘lajak pedagoglarning professional o‘sishida asosiy omillardan biri bo‘lib, ularning kasbiy salohiyatini, kreativ fikrlashini va o‘qitish sifatini belgilaydi[8].

Pedagogika sohasidagi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, bugungi kunda ta’lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagoglarni tayyorlash jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, nafaqat o‘qituvchilarning malakalarini oshirish, balki ularning o‘quvchilarga ta’lim berish usullarini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi. Bu maqolada innovatsion texnologiyalarni bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda qanday qo‘llash mumkinligi haqida so‘z yuritiladi[4].

Innovatsion texnologiyalarning ta’lim va tarbiya jarayonidagi asosiy ro‘li zamonaviy pedagogika va o‘qitish usullarini yangilashga yordam beradi. Kompyuterlar, internet, interaktiv doskalar, raqamli resurslar va virtual o‘quv muhitlari kabi texnologiyalar, o‘quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, pedagoglarga bilimlarni uzatishning yangi va samarali usullarini o‘rganish imkonini yaratadi. Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda texnologiyalarni qo‘llashning

quidagicha asosiy yondashuvlari mavjud. Innovatsion texnologiyalar yordamida bo'lajak pedagoglar uchun o'quv jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish mumkin.

Masalan, onlayn kurslar, vebinarlar va virtual sinflar orqali pedagoglar zamonaviy o'quv metodlari bilan tanishishadi va o'z tajribalarini oshiradilar. Shu bilan birga, interaktiv dasturlar va o'yinlar pedagoglarni o'quvchilarni qiziqtiruvchi, motivatsion usullar bilan ishslashga o'rgatadi[3].

An'anaviy va onlayn ta'limni birlashtirish, pedagoglarni o'quvchilarga o'quv materiallarini samarali yetkazib berish uchun yangi yondashuvlarga o'rgatadi. Bu texnologiya orqali pedagoglar, nafaqat ma'ruza o'tish, balki o'quvchilarning bilimini onlayn platformalar orqali ham baholash imkoniyatiga ega bo'ladir[5].

Talim jarayonini sun'iy intellekt yordamida individualizatsiya qilish mumkin. Bo'lajak pedagoglar, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga qarab ta'lim usullarini moslashtirishni o'rganadilar. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar, o'quvchilarning yutuqlarini tahlil qilib, pedagoglarga o'quv jarayonini optimallashtirishda yordam beradi.

Virtual va augmented reality texnologiyalari pedagoglarga o'quvchilarga murakkab mavzularni aniq va jonli tarzda tushuntirishda yordam beradi. Masalan, bo'lajak pedagoglar, VR va AR texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarga tarixiy voqealar, biologiya tajribalari yoki geometriya predmetlarini hayotga yaqin tarzda taqdim etish imkonini oladilar[5].

Innovatsion texnologiyalarni pedagogika ta'limiga integratsiya qilishning afzalliklari: Texnologiyalar pedagoglarning o'quvchilarga ta'lim berish usullarini rivojlantirish va ularni yanada samarali qilish imkonini beradi. Yangi texnologiyalar yordamida ta'lim jarayoni o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashadi va ularni aktiv ravishda o'rgatish imkonini yaratadi. Innovatsion texnologiyalar orqali pedagoglar har bir o'quvchining bilim darajasini aniqlab, o'zlashtirishga qaratilgan individual yondashuvni amalga oshirishi mumkin. Bu esa o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini oshiradi. Texnologiyalar, pedagoglarning o'quvchilarga kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvlarni o'rgatishlariga yordam beradi. Yangi texnologiyalar bilan tanishgan pedagoglar o'z darslarini yaratishda yangi g'oyalar va texnikalarni qo'llashga tayyor bo'lishadi[4].

Xulosa; Bo'lajak pedagoglarni innovatsion tayyorgarligini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishga, raqobatbardosh, yangilik yaratishga qodir o'qituvchilarni tayyorlashga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratadi. Innovatsion tayyorgarlikni rivojlantirish uchun ta'lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalar, ilmiytadqiqot ishlarini rag'batlantirish, ilg'or tajribalarni kengaytirish va innovatsion muhitni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi[6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4310-son qarori "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".
3. www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy sayti.
4. Abdullaeva G., Xodjaeva N. Pedagogik innovatsiyalar asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Karimov U. Zamoniyy ta'lif texnologiyalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
6. Xolboev Q. Pedagogik mahorat va innovatsiyalar. – Samarqand: Zarafshon, 2018.
7. Xoldorov M. Pedagogik innovatsiyalar va ta'lif texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2020.
8. Jo'rayev N., Qodirov A. Innovatsion pedagog texnologiyalar. – Toshkent: TDPU, 2019.